



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA KVEST VA VEB-KVEST TEKNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Muminova Nodiraxon Jurayevna

Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kvest texnologiyasi asosida geymifikatsiya jarayoniga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi islohotlari, jadid pedagogik merosi, raqamli ta'lim muhiti hamda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kvest va veb-kvest texnologiyalarining mohiyati, turlari, ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari hamda ularning pedagogik samaradorligi ochib berilgan. Maqolada kvest texnologiyasining bo'lajak o'qituvchilarning kreativ, raqamli va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kvest texnologiyasi, veb-kvest, geymifikatsiya, bo'lajak o'qituvchi, raqamli ta'lim, kompetensiya, innovatsion pedagogika, kreativ fikrlash, ta'lim sifati.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ КВЕСТ И ВЕБ-КВЕСТ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

Муминова Нодирахон Жураевна

Ферганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические и практические основы подготовки будущих учителей к процессу геймификации на основе квест-технологий. Проанализированы реформы в сфере образования Республики Узбекистан, педагогическое наследие джадидов, особенности цифровой образовательной среды и значение инновационных технологий. Раскрыта сущность, виды и педагогические возможности квест- и веб-квест-технологий в образовательном процессе. Обоснована роль квест-технологий в формировании профессиональных, творческих и цифровых компетенций будущих педагогов.

Ключевые слова: квест-технология, веб-квест, геймификация, будущий учитель, цифровое образование, компетентность, инновационная педагогика, креативное мышление, качество образования.

EDUCATIONAL POSSIBILITIES OF QUEST AND WEB-QUEST TECHNOLOGIES IN THE CONDITIONS OF EDUCATION MODERNIZATION

Muminova Nodiraxon Jurayevna

Fergana State University, Independent Researcher

Abstract

This article discusses the theoretical and practical foundations of preparing future teachers for the gamification process based on quest technology. The reforms in the education system of Uzbekistan, the pedagogical heritage of the Jadids, the features of the digital learning environment, and the importance of innovative technologies are analyzed. The essence, types,

and pedagogical potential of quest and web-quest technologies are revealed. The role of quest technology in developing professional, creative, and digital competencies of future teachers is substantiated.

Keywords: quest technology, web-quest, gamification, future teachers, digital education, competence, innovative pedagogy, creative thinking, quality of education.

Hozirgi globallashuv davrida yangi bilimlarning paydo bo'lish sur'ati tezlashmoqda. Ta'lim sifatini doimiy ravishda oshirish, raqamli texnologiyalarga o'tish bugungi kunda ta'limda eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal qilishda axborot kompetensiyasi asosiy rol o'ynaydi. Zamonaviy bolalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli qurilmalar bilan to'yingan muhitda dunyoga keladi, voyaga yetadi va ta'lim oladi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilar ta'limning dastlabki bosqichidanoq zamonaviy raqamli imkoniyatlardan, xususan internetning axborot salohiyatidan ongli va maqsadli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Jadid pedagogikasining yetuk namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniylarning pedagogik merosida ta'lim-tarbiya va ma'rifat masalalari davrning ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy sharoitlari bilan uzviy bog'liq holda yoritilgan bo'lib, unda o'qituvchining jamiyatdagi mavqei va kasbiy fazilatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Mashhur ma'rifatparvar pedagog Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Uning fikricha, ta'lim jarayoni o'quvchini faqat bilim bilan emas, balki mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ma'naviy yetuklik bilan ham qurollantirishi lozim[2;120-b]. Avloniy "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir" deb ta'kidlab, ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rnini ko'rsatib bergan[3;18-b]. Olimning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bilimni qiziqarli, tushunarli va hayot bilan bog'liq holda berish zarurligi qayd etiladi[3;40-b]. Unga ko'ra, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchining yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olishi lozim[1;80-b]. Darhaqiqat, Abdulla Avloniyning ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlari bugungi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan hamohangdir. Uning ta'lim jarayonida shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari hozirgi kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillariga mos keladi. Ya'ni, ta'lim faqat bilim berish bilangina cheklanmasdan, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ma'naviy yetuklikni shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Avloniyning tarbiyani jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholashi, pedagogning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yanada oshiradi. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot..." degan fikri orqali u ta'lim-tarbiya jarayonining strategik ahamiyatini chuqur anglatadi. Bu g'oya bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan barcha islohotlarning markazida turadi.

Inson hayotining har bir yosh davri o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ushbu xususiyatlarni anglash va ta'lim jarayonida inobatga olish bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim kasbiy vazifalardan biridir. Mazkur paragrafda bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarni tushunishga doir bilimlari, shuningdek aynan shu yosh davrida kvest texnologiyasidan foydalanish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan pedagogik va psixologik muammolar hamda ularni samarali hal etish yo'llari yoritib beriladi.

Bo'lajak o'qituvchilar bolalarni birinchi maktab kunlaridanoq turli xil ma'lumotlar manbalari bilan ishlashga o'rgatishlari kerak, chunki hozirda matn, grafika, tovush, multimediya, raqamli ma'lumotlar bilan ishlash zarur meta-ta'lim mahoratiga aylandi. Ular ko'pincha ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida o'ylaydilar. Ana shunday samarali pedagogik

texnologiyalardan biri ta'limiy izlanishga asoslangan kvest texnologiyasidir. Kvestda ishtirok etish o'quvchilar o'rtasida muloqotga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi hamda ularning universal o'quv faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Kvest texnologiyasidan foydalanish bo'lajak o'qituvchiga o'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi an'anaviy munosabatlardan chekinish, ta'lim muhitini yanada kengaytirish va o'quvchilarni faol hamkorlikka jalb etish imkonini beradi.

Birinchi marta "kvest" tushunchasi o'tgan asrda kompyuter o'yinlarida paydo bo'lgan. O.V.Pankova, M.N.Kicherova[20], G.Z.Yefimovalarning yozishlaricha, bu tushuncha onlayn va oflayn kompyuter o'yinlarining har xil turlarini nazarda tutadi. Bunda taqdim etilgan interaktiv hikoyada qahramon yoki qahramonlar bilan o'yinchi o'yinning istalgan vaqtida maqsadga erishish uchun, keyingi bosqichga o'tish uchun biror narsani izlash, qandaydir jumboqni hal qilish yoki muayyan vaziyatda yagona to'g'ri yechimni topish kerak.[23] Shu sababli, interaktiv, izlanishga asoslangan faoliyatlar ta'lim oluvchilarni qiziqtirishda va ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Manbalar tahliliga ko'ra, "kvest" atamasi ingliz tilidan kirib kelgan bo'lib, *quest* so'zi "izlash", "biror narsani qidirish", "maqsadli sarguzasht" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu tushuncha aniq bir maqsad yo'lida olib boriladigan qidiruv jarayonini ifodalaydi. Dastlab "kvest" atamasi kompyuter o'yinlari sohasida qo'llanilib, u Sierra On-Line kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan *King's Quest*, *Space Quest*, *Police Quest* kabi o'yinlar nomlari orqali keng tarqalgan. Keyinchalik mazkur tushuncha mazmun jihatidan kengayib, izlanish, sarguzasht hamda muammoni hal etishga yo'naltirilgan faol va intellektual o'yinlar turini ifodalovchi termin sifatida shakllangan[13].

Klassik pedagogika namoyondasi Y.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida: "...agar aqlning qolgan qismi uchun yoshlarga ruxsat berilsa va hayotning jiddiy tomonlarini yorqin namoyon etuvchi o'yinlar o'ylab topilsa, yechimi murakkab bo'lgan muammolar allaqachon rivojlanib borgan bo'lar edi"[9;118-120-b] - deya ta'kidlagan edi.

Shuni aytish mumkinki, kvest texnologiyasining mazmuni pedagogika sohasida avvaldan mavjud bo'lgan ayrim mashhur o'yinlarga yaqin bo'lib, ularda topshiriqlar maxsus "stantsiyalar"da bajariladi, ishtirokchilar turli to'siqlar va yo'nalishlar orqali harakatlanadi. Bunday o'yinlarda ham qatnashchilar belgilangan marshrut bo'yicha harakat qilib, vazifalarni bosqichma-bosqich bajaradilar. Masalan, "Estafeta", "Topib kel", "Sirli xat", "Labirint", "Qiziqarli sayohat" kabi o'yinlarda ham o'quvchilar izlanadi, muammolarni hal qiladi va yakuniy maqsadga erishishga intiladi. Shu jihatdan, ushbu o'yinlar kvest faoliyatining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Mazkur muammoga doir E.A.Igumnova, I.V.Radetskaya, M.V.Ilyushinalarning qarashlari e'tiborga loyiqdir. Ularning ta'kidlashicha I.P.Ivanov tomonidan ishlab chiqilgan stantsiya asosidagi o'yinlar ko'pincha "jonli" kvestlar deb ataladi. Biroq olimlar stantsiyalar bo'yicha tashkil etilgan o'yinlar va kvestlar o'rtasida muhim farqlar mavjudligini qayd etadilar. Xususan, kvestda barcha topshiriqlar yagona umumiy maqsad bilan bog'langan bo'lib ular ketme-ketlikda bajariladi: avvalgi vazifa bajarilmasdan turib, keyingisiga o'tish mumkin emas. Kvest jarayoniga o'quvchi oldiga muayyan muammo qo'yiladi va u ushbu muammoni hal etish orqali belgilangan maqsadga bosqichma-bosqich yaqinlashadi.[16;164-b] Haqiqatan ham ushbu qarashlar, kvest texnologiyasini mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mualliflar tomonidan stantsiya asosidagi o'yinlar bilan kvestlar o'rtasidagi farqlarning ajratib ko'rsatilishi kvestni faqat harakatga asoslangan o'yin emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon sifatida baholashga asos yaratadi. Topshiriqlarning o'zaro bog'langan va ketma-ketlikda bajarilishi o'quvchilarda izchillik, mantiqiy fikirlash va muammoni bosqichma bosqich hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, kvest texnologiyasi o'quvchini

faol o'rganishga jalb etuvchi, mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lim jarayonini mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Zamonaviy o'quv jarayonida kvest texnologiyasini qo'llashning nazariy va amaliy asoslari Y.S.Buxovskiy, B.Dodj, G.Z.Efimova, G.S.Isakova, E.A.Igumnova, M.N.Kicherova, T.A.Kuznetsova, N.V.Nikolaeva, I.N.Sokol kabi olimlarning ilmiy faoliyatida o'rganilgan.

Kvest ham guruh (3-5 kishi), ham individual ish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin va maktab o'quvchilari (Y.S.Buxovskiy, N.G.Budanova, A.A.Vlasova, Y.N.Zarubina, G.L.Shamatonova) o'rtasida raqobat va yetakchilikni rivojlantiradi.[14]

Kvest texnologiyasi loyihaviy faoliyatga asoslangan pedagogik texnologiya sifatida N.G.Budanova, V.V.Shmidt, N.A.Nikolaeva, E.A.Igumnova, I.V.Radetskoy, A.V.Yakovenkoning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, kvest jarayonida o'quvchilar axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalarini egallaydi, uni saqlash uzatish va taqqoslash orqali yangi bilimlarni mustaqil ravishda shakllantiradi. Bunda o'quvchilar faqat tayyor javoblarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki muammoni hal etishga qaratilgan turli xil o'quv mahsulotlarini yaratadilar. Bu jarayon savollarga asosli javob topishdan tortib, multimedia taqdimotlari, videoroliklar, veb-saytlar, bukletlar va boshqa ijodiy ishlarni ishlab chiqishgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi.[17;164-b] Olimlar fikriga qo'shilib, shuni e'tirof etish joizki, ushbu qarashlar kvest texnologiyasini mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mualliflar tomonidan stansiya asosidagi o'yinlar bilan kvestlar o'rtasidagi farqlarning ajratib ko'rsatilishi kvestni faqat harakatga asoslangan o'yin emas, balki aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'limiy jarayon sifatida baholashga asos yaratadi. Topshiriqlarning o'zaro bog'langan va ketma-ketlikda bajarishi o'quvchilarda izchillik, mantiqiy fikrlash va muammoni bosqichma bosqich hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, kvest texnologiyasi o'quvchini faol o'rganishga jalb etuvchi, mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta'lim jarayonini mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etilishi mumkin.

L.O.Afanasyevaning fikricha, kvestning aniq belgilangan didaktik vazifasi, o'yin rejasi, yetakchi (murabbiy), aniq qoidalari borligiga e'tibor qaratsak, kvest o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.[5;149-159-b] Demak, bunday tartiblangan faoliyat o'quvchilarni faollikka undaydi, ularni mustaqil fikrlashga va muammoni bosqichma-bosqich hal qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga, o'qituvchi rahbarligi jarayonni nazorat qilish va ta'limiy maqsadlarni aniq amalga oshirishni osonlashtiradi.


O.V.Pankovanning ta'kidlashicha, kvest texnologiyasi birinchi navbatda bolani ta'lim muhitiga singdiradi, Internetda yoki boshqa manbalarda, masalan, darsliklar, didaktik materiallar, plakatlar, taqdimotlar kabi faol qidiruv bilan o'yinga o'xshash jarayonni yaratish orqali bolani qiziqtirishga imkon beradi.[22;45-52-b] Fikrimizcha, kvest texnologiyasi o'quvchini faqat darsni tinglaydigan shaxs emas, balki faol izlovchi, muammoni hal qiluvchi ishtirokchiga aylantiradi. Internet va turli ta'limiy manbalardan foydalanish orqali bolalar o'rganayotgan mavzuga qiziqish uyg'otadi, o'z bilimlarini sinab ko'rish va tajriba qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek darslar interaktiv va qiziqarli kichadi. Shu tarzda ular mustaqil fikrlashni, tahlil qilishni va ijodiy qarorlar qabul qilishni ham o'rganadilar.

I.A.Ovcharenkoning kvestni dars doirasida ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham yaratish mumkinligi haqidagi tushuntirishi diqqatga sazovordir. Kvest mavzu bo'yicha yangi bilim olishga qaratilgan bo'lishi mumkin yoki u o'quvchilar tomonidan olingan ma'lumotlarni boyitishi yoki umumlashtirishi, chuqurlashtirishi mumkin, bu bir vaqtning o'zida bir nechta o'zaro bog'liq muammolarni ko'rib chiqishga imkon beradi.[21] Demak,

kvest texnologiyasi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik va metodik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

O'tgan asrning 90-yillari o'rtalarida B.Dodj va T.March (AQSh, San-Diego universiteti) ta'lim jarayonini takomillashtirish maqsadida veb-kvest texnologiyasi kontsepsiyasini ishlab chiqdilar. Universitet professori B.Dodj tomonidan 1995-yilda "WebQuest" (veb-kvest) atamasi kiritildi. B.Dodj o'quv jarayonida ma'lum bir qidiruv tizimidan foydalanishni taklif qildi. Uning taklifiga ko'ra oraliq bosqichlarni o'tish bilan vazifaning yechimini topish kerak edi. Ularning har biri qandaydir topshiriqlarni yoki harakatlarni bajargandan so'ng, keyingi bosqichga o'tish uchun kalit topishni talab qiladi. T.March L.S.Vigotskiyning "proksimal rivojlanish zonasi" haqidagi asarlariga asoslanib, veb-kvestni kognitiv psixologiya aspektida ko'rib chiqdi. Veb-kvestni Internetdagi muhim manbalarga havolalardan foydalanadigan ta'lim tuzilmasi va tartibida aniq vazifa sifatida belgiladi.[11] O'quvchilarda ma'lumotlarni izlash va o'zgartirish jarayonida yakka tartibda ham, guruhda ham ishlash ko'nikmasini shakllantirish maqsadida o'quvchilarni har qanday muammoni noaniq yechim bilan o'rganishga undadi.

B.Joge o'zining "Quest Garden" shaxsiy saytida 30 000 internet veb-kvest dizaynini taqdim etdi; Ushbu manba o'nta tilga (ispan, portugal, kalon, fransuz, nemis, italyan, golland, yunon, arab va indoneziya) tarjima qilingan[7].



1.1-rasm. O'tkazilish muhitiga ko'ra kvest turlari

Veb-kvest texnologiyasining mohiyati quyidagicha izohlanadi:

- Internet tarmog'ida o'quvchilar ma'lum topshiriqlarni bajarish uchun ishlaydigan maxsus saytlar mavjud. Bunday platformalar o'qituvchilarga o'quvchilar faoliyatini kuzatish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirish va murakkab didaktik vazifalarni bajarishga yordam berish imkonini beradi (Y.S.Byxovskiy, G.S.Isakova, E.M.Shulgina, G.L.Shamatonova);[14]

- Internet orqali ma'lumotlarni izlash va ta'limiy muammoni hal qilish uchun yaratilgan maxsus veb-sayt faqat yakuniy natijani olish bilan cheklanmasligi, balki foydalanuvchiga texnik yordam ko'rsatishi, shuningdek murakkab va qiziqarli didaktik vazifalarni bajarishda yo'l-yo'riq berishi muhimdir. (E.A.Igumnova, I.VRadetskaya);[16]

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu o'quv jarayonida qo'llaniladigan didaktik vosita bo'lib, uning doirasida maxsus kompyuter dasturlari qo'llanadi. Bu texnologiyalar orqali o'quvchilar internetdagi ma'lumotlarni izlash, natijalarini tayyorlash va taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuningdek o'quv jarayonida ishtirokchilar o'rtasida

samarali fikr almashish tashkil etiladi (A.A.Vlasova, Yu.N.Zarubina, A.A.Karavka, G.L.Shamatonova);[19]

-O'qituvchi tomonidan yaratilgan interfaol ta'lim muhiti (T.A.Kuznetsova)[10];

-O'yin faoliyatining intellektual turi (G.Z.Efimova, M.N.Kicherova);[20]

-Internetning axborot resurslaridan foydalaniladigan rolli o'yin elementlari bilan muammoli vazifa (A.V.Yakovenko).[24] Darhaqiqat, keltirilgan yondashuvlar veb-kvest texnologiyasining ta'lim jarayonida muhim va ko'p qirrali vosita ekanini ko'rsatdi. Olimlar veb-kvestni nafaqat internetga asoslangan texnologiya, balki o'quvchilarning mustaqil izlanishi, muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun va hamkorlikda ishlashni ta'minlovchi samarali didaktik muhit sifatida talqin etadilar. Veb-kvest maxsus ta'limiy saytlar orqali tashkil etilib, bo'lajak o'qituvchiga o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish va nazorat qilish, o'quvchilarga esa axborotni izlash, tahlil qilish va amaliy qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, u faqat yakuniy natijaga erishishga emas, balki o'rganish jarayonining o'zini mazmunli va qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalari, o'yin va rolli faoliyat elementlarining uyg'unligi veb-kvestni zamonaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning bilish faolligi, tanqidiy fikrlashi va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik texnologiyaga aylantiradi (1.1-jadval)

Veb-kvest texnologiyasining mohiyati		
Yo'nalishlar	Asosiy mazmuni	Ta'limiy ahamiyati
 Internet platformalar	<i>Mahsus saytlar orqali topshiriqlarni bajarish, faoliyatni monitoring qilish</i>	<i>Mustaqil izlanish va nazoratni rivojlantiradi</i>
 Axborot izlash va yordam	<i>Ma'lumot topish, texnik yordam ko'rsatish, yo'l-yo'riq berish</i>	<i>Muammoli vazifalarni samarali hal qilish</i>
 AKT asosida ta'lim	<i>Dasturlar orqali izlash, taqdimot, hamkorlik</i>	<i>Raqamli kompetensiyani shakllantiradi</i>
 Interfaol muhit	<i>O'qituvchi tomonidan yaratilgan muhit</i>	<i>Faollik va motivatsiyani oshiradi</i>
 Intellektual o'yin	<i>O'yin orqali bilim berish</i>	<i>Qiziqish va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi</i>
 Rolli muammo vazifalari	<i>Rolli o'yin asosida muammoli vazifa</i>	<i>Ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi</i>
 Hamkorlik va izlanish	<i>Jamoaviy ish, muammo yechish</i>	<i>Tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi</i>
 Natija va jarayon birligi	<i>Jarayonni qiziqarli tashkil etish</i>	<i>Ta'lim samaradorligini oshiradi</i>

1.2-jadval. Veb-kvest texnologiyasining mohiyati

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan kvest va veb-kvest texnologiyalari mazmunan o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular amalga oshirilish shakli va vositalari jihatidan farqlanadi. Kvest-bu o'quvchilarning muayyan muammoni bosqichma-bosqich bajariladigan topshiriqlar orqali hal etishga yo'naltirilgan, o'yin va izlanishga asoslangan ta'lim texnologiyasidir. U real ta'lim muhitida, axborot-kommunikatsiya vositalarisiz ham tashkil etilishi mumkin. Veb-kvest esa kvest texnologiyasining internet muhitida amalga oshiriladigan shakli bo'lib, unda topshiriqlarni bajarish jarayoni onlayn manbalar, elektron resurslar va havolalar asosida tashkil etiladi. Veb-kvest jarayonida o'quvchilar ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish va qayta ishlashda raqamli texnologiyalardan faol foydalanadilar. Shu sababli, kvest umumiy didaktik texnologiya sifatida turli muhitlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan faoliyatni ifodalasa, veb-kvest uning axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan maxsus ko'rinishi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, har bir veb-kvest kvest texnologiyasining tarkibiy qismi bo'lsa-da, har bir kvest veb-kvest shaklida tashkil etilishi shart emas. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning raqamli kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oliy ta'limni isloh qilish va 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Jadidlar merosida ilgari surilgan ta'limning ma'naviy-axloqiy va ijodiy yo'nalishlari bugungi kompetensiyaviy yondashuv bilan uyg'unlashadi. Globallashuv va raqamli muhit sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda axborot kompetensiyasi, mustaqil va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurati kuchaymoqda. Shu nuqtayi nazardan, kvest va veb-kvest texnologiyalari o'quvchilarni izlanishga, muammoli vaziyatlarni hal etishga va hamkorlikda ishlashga jalb qiluvchi samarali innovatsion didaktik vosita sifatida bo'lajak o'qituvchilarni geymifikatsiya jarayoniga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avloniy A. Pedagogik asarlar to'plami (2006). - Toshkent: Universitet, 2006. - 80 b.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar (yangi tahrir). - Toshkent: Ma'rifat, 2020. - 120 b.
https://kutubxonachi.uz/media/books/abdulla-avloniy-tanlangan-asarlar_kutubxonachi.uz.pdf (8.02.2026)
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq (2021 nashr). - Toshkent: Ma'naviyat, 2021. - 40 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq (zamonaviy nashr). - Toshkent: Ma'naviyat, 2021. - 18 b.
5. Афанасьева Л. О. Использование квест-технологии при проведении уроков в начальной школе / статья в журнале - научная статья; Номер: 6 Год: 2012 Страницы: 149-159
6. J.G'. Yo'ldoshev, S.A. Usmonov. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent: «Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi», 2008. - 130 bet.
7. Joge B. QuestGarden: shaxsiy sayt. - 30 000 veb-kvest dizayni, o'nta tilga tarjima qilingan. - URL:
<https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/download/1324/1182/1188/> (ko'rilgan: 20.01.2026).
8. Kent S.L. The Ultimate History of Video Games. - New York: Three Rivers Press, 2001.

9. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. - Toshkent: O'qituvchi, 2019. - B. 118-120.
10. Kuznetsova T.A. Technology Web Quest as an interactive educational environment // ITO Ivanovo 2011 / Section 2. - 2011. - P. 12 - URL: http://ito.edu.ru/2011/Ivanovo/II/II_012.html (ko'rilgan: 20.01.2026).
11. March T. What WebQuests Are (Really) // tommarch.com. - 2003. - URL: <https://tommarch.com/writings/what-webquests-are/> (ko'rilgan: 2026 01 20).
12. Oxford English Dictionary. Quest. - Oxford: Oxford University Press. Dodge, B. WebQuest.org - Updated Resources, 2015 - 2020
13. Быховский Я. С. Образовательные веб-квесты [Электронный ресурс]. - Режим доступа URL: <http://www.ito.edu.ru/1999/III/1/30015.html>.
14. Быховский Я. С. Образовательные веб-квесты [Электронный ресурс]. - Режим доступа URL: <http://www.ito.edu.ru/1999/III/1/30015.html>.
15. Игумнова Е. А. Квест-технология в образовании: учеб. По-сobie / Е. А. Игумнова, И. В. Радецкая.- Чита : ЗабГУ - 2016. - 164 с. - ISBN 978-5-9293-1735-4 - Текст : непосредственный.
16. Игумнова Е. А. Квест-технология в образовании: учеб. По-сobie / Е. А. Игумнова, И. В. Радецкая.- Чита : ЗабГУ - 2016. - 164 с. - ISBN 978-5-9293-1735-4 - Текст : непосредственный.
17. Игумнова Е. А. Квест-технология в образовании: учеб. По-сobie / Е. А. Игумнова, И. В. Радецкая.- Чита : ЗабГУ - 2016. - 164 с. - ISBN 978-5-9293-1735-4 - Текст : непосредственный
18. Каравка А.А. http://mir-nauki.com/PDF/45PD_MN315.pdf
19. Кичерова М.Н. Образовательные квесты как креативная педагогическая технология для студентов нового поколения [Элек-тронный ресурс] / М. Н. Кичерова, Г. З. Елфимова // Интернет-жур-нал «Мир науки» 2016, Том 4, номер 5 Режим доступа URL:<http://mir-nauki.com/PDF/28PDMN516.pdf>
20. Овчаренко И. А. Квест как современная педагогическая технология в дополнительном образовании [Электронный ресурс] / И. А. Овчаренко. Режим доступа URL: <https://infourok.ru/kvest-kak-sovremennaya>.
21. Панкова О.В. Веб-квест технология формирования медиакомпетентности будущего учителя иностранного языка // Педагогические исследования. - 2017. - № 4. - С. 45-52. - URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/web-quest-tehnologiya-formirovanie-mediakompetentnosti-buduschego-uchitelya-inostrannogo-yazyka> (ko'rilgan: 21.01.2026).
22. Панькова О. В. Квест-технология в образовании и воспитании. Роль квест-технологий [Электронный ресурс] / О. В. Панькова. Режим доступа URL: <http://fb.ru/article/248308/kvest-tehnologiya-v-obrazovanii-ivospitanii-rol-kvest-tehnologiy>
23. Яковенко А. В. Использование технологии Web-quest в языковом образовании [Электронный ресурс] / А. В. Яковенко. Ре-жим доступа URL:http://rusnauka.com/5_SWMN_2012/Pedagogica/1_100769.doc.html